

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ  
ВАЗИРАЛИГИ

БУХОРО МУҲАНДИСЛИК-ТЕХНОЛОГИЯ ИНСТИТУТИ



“Ёшлар қўллаб-қувватлаш ва аҳоли саломатлигини  
мустаҳкамлаш йили”га бағишланган

профессор-ўқитувчилар, илмий изланувчилар,  
магистрлар ва талабаларнинг  
илмий-амалий анжумани

ТЕЗИСЛАР ТЎПЛАМИ

(2021 йил 28-29 .май)



БУХОРО – 2021

Ушбу мақолалар тўпламида институт профессор-ўқитувчилар, илланувчилар ва магистрлар томонидан тайёрланган илмий тадқиқот ишлари натижалари бўйича материаллар chop этилган. Анжуман материалларида институтда илмий технологияларда инновациялар, замонавий ишлаб чиқаришнинг техника ва технологиялари, ишлаб чиқаришда энергия ва ресурс-тежовчи технологиялар, табиий факторнинг назарий ва амалий муаммолари, замонавий иқтисодиётнинг катимий-иқтисодий муаммолари, замонавий мутахассислар тайёрлашнинг таълим технологиялари ечаюнга бағишланган илмий излановчилар натижалари асосидаги мақолалар жамланган

ТАШКИЛИЙ ҚЎМИТА

1. проф.Н.Р.Баракаев
2. ф-м.ф.д.М.З.Шарипов

- институт ректори, раис  
- ИИ ва ИБ проректор, масъул котиб

Аъзолар:

1. доц.Ш.М.Ходжиев
2. доц. Ю.Шукуритлаев
3. ф.Т.Гайбуллаев
4. проф.Х.Б.Дўстов
5. проф. Н.Н.Садуллаев
6. доц. Ш.М.Мурадов
7. доц. Ш.Н. Атауллов
8. проф.Х.К.Рисмонов
9. доц. Адизов Р.Т.
10. доц.С.С.Муслев
11. проф.Х.ф.Джуроев
12. проф.А.Б.Низамов
13. доц.Б.ф.Азиев
14. Б.Мурадов

- ЎИБ проректор;  
- М ва МИБ проректор;  
- МИИБ проректор  
- Таърихийт мухарири  
- Энергетика факультет декани ;  
- М ва А-Қф декани;  
- НИТф декани;  
- ЕСф декани;  
- К ва ООТф декани;  
- Т ва ЧСф декани;  
- ТЖБТф декани;  
- Магистратура бўлим бошлиғи  
- “ЎТ.И. ва ИПК.ТБ” бошлиғи  
- «Ўзбекистон Ёшлар иттифоқи» бошлиғи;  
ташқиқот кенгаш раиси

215. РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ВНЕДРЕНИЯ НОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА СОВРЕМЕННОМ ЭТАПЕ Примова Азиза Азизовна, старший преподаватель кафедры Менеджмент, Аралова Карина, студентка группы 713-20.....	229
216. НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ ИНОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА НА СОВРЕМЕННОМ ЭТАПЕ Примова Азиза Азизовна, старший преподаватель кафедры Менеджмент, Назарова Лайло, студентка группы 713-20.....	230
217. НЕЙРОМАРКЕТИНГ В РЕКЛАМЕ ТУРИСТИЧЕСКИХ УСЛУГ Расулова Нигора Нематовна, Худойрова Мехрабиз.....	231
218. СОЛИҚ ТИЗИМИДА СОЛИҚ ХАВФИНИ КАМАЙТИРИШ ЙЎЛЛАРИ Тошев Фахриддин Зайноддинович.....	233
219. УПРАВЛЕНИЕ УДАЛЁННЫХ СОТРУДНИКОВ В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ доцент кафедры «Менеджмент» Закиятдинова Нафиса Мухаммадовна Магистрант группы М 10-20 МНДТ Рахимова Гулчехра Рахимоновна.....	234
220. РАЗВИТИЕ МАРКЕТИНГА В СФЕРЕ УСЛУГ Д.Д.Аюмова, Студентка группы 708-18ИЧТ Г.Закриллаева.....	235
221. ТАДБИРКОРЛИК ҲАОЛИЯТИДА ИННОВАЦИЯ ЖАРАЁНЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ Усмонова Насиба Юнусовна.....	236
222. NANOTECHNOLOGIYALAR UCHINCHI MING YILLIKNING KASHFYOTI 18-20 DMSQIT I- bosqich magistranti Tursunova Umida Olimovna.....	237
223. ИШЛАБ ЧИКАРИШНИ МОДЕРНИЗАЦИЯЛАШ ШАРОИТИДА ОИЛАВИЙ ТАДБИРКОРЛИКНИ РИВОЖЛАШТИРИШНИНГ МУХИМ ҲУНИ 18-20 ДМСҚИТ I- босқич магистранти Умида Турсунова Олимовна.....	238
224. ЗАМОНАВИЙ ИҚТИСОДИЁТНИ БАҲАРЛАШТИРИШДА КОРХОНАЛАРНИНГ ҲУНИ Муслиева Жамоля Кароматовна, БМТИ катта ўқитувчиси, Жўраев Жаҳондирбек Жамилбек ўғли, БМТИ талабаси.....	239

#### VIII. ШҲҒБА ЗАМОНАВИЙ МУТАХАССИСЛАР ТАЙЁРЛАШНИНГ ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ

225. OLIY O'QUV YURLARIDA O'QUV JARAYONINI TASHKIL ETISHNING YANGICHA YONDASHUVI Buxoro davlat universiteti, "Turizm" fakulteti o'qituvchisi Djabbarov I.G.....	241
226. ТЕХНИК СОҲАДА ИННОВАЦИОН ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАР АСОСИДА ДАРС БЕРИШ ЖАРАЁНИДА ТАЛАБАЛАР ИНТЕЛЛЕКТУАЛ БИЛИМИНИНГ ШАКЛЛАНИШИ Adizova Sevara Yuzupovna.....	242
227. «ТЕХНОЛОГИК ЖАРАЁНЛАРНИ АВТОМАТЛАШТИРИШ» ҲАНИНИ ҲҚИТИШДА ЗАМОНАВИЙ ҲҚУВ УСЛУБИИ МАЖМУАДАН ҲОЙДАЛАНИШ Эргашова Г. Б., ТЖБАКТ кафедраси I-босқич магистранти.....	243
228. ХОРИЎ ТИЛАРНИ О'РГАНИШДА ИНОВАЦИОН УСУЛЛАРДАН ФОЙДАЛАНИБ ТИЛ О'РГАНИШ САЛОҲИЯТИНИ ОШИРИШ Махмудова О.С.....	244
229. ҲҚУВ ЖАРАЁНИДА МАСОҲАВИЙ ТАЪЛИМНИНГ АҲАМИЯТИ Аюмова Ноноля Раҳаббеговна.....	245
230. ТАЪЛИМДА BIG DATA АЖРАТИБ ТУРАДІГАН БЕЛГИЛАРИ Ибрагимов Улуғбек Мурадilloевич.....	246
231. ОЛИЙ ҲҚУВ ЮРТЛАРИДА ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ВА СПОРТНИНГ РИВОЖЛАНИШИ М.Б.Ахмедов.....	247

#### OLIV O'QUV YURLARIDA O'QUV JARAYONINI TASHKIL ETISHNING YANGICHA YONDASHUVI

Buxoro davlat universiteti, "Turizm" fakulteti o'qituvchisi Djabbarov I.G.

Muvaffaqiyatli ta'lim jarayoni tashkil etish, avvalambor o'quv darsining loyihalashtiruvchisi – pedagoglarning shaxsiy o'qitish qobiliyatlari, ularning kasbiy kompetentligi va ilg'or pedagogik texnologiyalardan maqsadli va o'z o'rnida qo'llay olishiga ham bog'liq.

Mashg'ulotlar turlarining an'anaviy ko'rinishlari bilan bir qatorda noan'anaviy tashkiliy tadbirlarni keng yo'lga qo'yish ta'lim oluvchilarning sezilarli darajadagi rivojlanishiga olib keladi. Bunday o'zgarishlar miqdor va sifat kesimlarida, vaqt birligi davomida salmoqli natija beradi. Mashq qilish tufayli ko'rish va eshitish sezgilari evaziga bo'ladigan o'zlashtirish natijalarini oshirish pedagogik tajribada isbotlangan.

Albatta, o'rganuvchilarni darsda faol harakatini ta'minlovchi, mustaqil fikrlash, notanish vaziyatlarda yechim izlab topish va unga moslashish qobiliyatlarini, shuningdek mutavassiligi doirasidagi bilimlarni o'rganishda qiziqish va kasbiy javobgarlik va o'z kasbiga muhabbat xislatlarini shakllanishida shaxsga yo'naltirilgan ta'limning o'rni salmoqli ahamiyat kasb etadi.

Aynan yuqorida ta'kidlangan talablardan kelib chiqqan holda, biz 3-bosqich "Xizmatlar sohasi" mutavassiligi talabari uchun seminar darsini tashkil etish orqali pedagogik tajriba-sinov ishini olib bordik. Pedagogik tajriba-sinovlar olib borishning asl mohiyati amaldagi pedagogik jarayonlarni takomillashtirishga olib boradigan tadqiqotlar va ularning farazlariga muvofiq ravishda, aniq maqsad sari yo'naltirilgan yangi yo'nalish, mazmun, usul, vosita va yangi ta'lim-tarbiyaviy muhit yaratishdan iborat. Tadqiqotdan ko'zlangan asosiy maqsad ilg'or ta'lim texnologiyasini qo'llash talabalarning fanni o'zlashtirish bo'yicha ko'rsatkichlari tafovutlarini kuzatish va ularning fanga qiziqish darajasidagi o'zgarishlarni aniqlashdan iborat edi. Tadqiqot ishi ikki hafta davomida Buxoro davlat universiteti, "Xizmatlar sohasi(Turizmni tashkil etish va boshqarish)" yo'nalishida tahsil oluvchi ikkita guruhda olib borildi. Tadqiqot rejasiga asosan, mavzuning mazmuni dars boshlanishidan oldin, rejalar sonidan kelib chiqib, guruhni 3 ta kichik jamoalarga bo'linishlari aytiladi. Unga ko'ra har bir guruhga 10 daqiqa vaqt ajratilib ularga tarqatilgan mavzuning mos rejalarini mazmuni mustaqil, zarur hollarda o'qituvchidan ko'mak olib o'qib o'rganilishi lozimligi uqitirildi. O'n daqiqa fursat o'tgandan so'ng, guruhlar boshqa guruhlar bilan mavzu rejalarining matnini almashtirilishi lozim bo'ladi. Yakunida har bir guruh ishtirokchilari dastlab o'ziga belgilangan reja mazmunini doska oldiga kelib tushuntirib berishadi va boshqa guruhlar tomonidan berilgan savollarga javob berishadi, bunda har bir guruhga taqdimot uchun 10 daqiqa vaqt ajratilishi eslatib o'tiladi va baholash mezonini tushuntirib o'tiladi.

Tadqiqot natijasiga ko'ra darslarga 2 nafar umuman faol bo'lmagan yoki fiolli nisbatan past bo'lgan talabalar to'liq tarzda qamrab olindi. Ayniqsa talabalarning mavzu rejasi mazmunini bayon etishdagi o'ziga ishonch hamda o'zida mavjud qo'shimcha bilimlarga tayanib mustaqil fikrlash qobiliyatining paydo bo'lganligi, qayd etish mumkin bo'lgan ijobiy natijalaridan bo'ldi deb aytish mumkin. Tajriba-sinov asosida olingan ijobiy natijalar qatoriga talabalarda vujudga kelgan ishonchning ortganligi va "Servisologiya" faniga nisbatan yuqori qiziqishni aytib o'tish lozim.

Pedagogik izlanish olib borilayotgan shu yo'nalishdagi ikkinchi guruhdagi natijalar birinchi guruhda kutilgan natijalar bilan bir xil bo'lmadi. O'rganishlarimiz natijasida shu narsa aniq bo'ldiki, matn mazmunini bu guruh talabalarning ko'pchiligiga talabalarda vujudga kelgan tushunishlarida muayyan qiyinchiliklarni vujudga keltirdi. Natijada ular tarqatilgan materiallarni doska oldiga kelib, o'zlari tushungan, imkon qadar eslab qolgan materialni bayon etish o'rniga mavzu materialini boshdan oyoq o'qib beryotganlarini kuzatsakda, ammo keyingi seminar darslarida ularning asta sekin mustaqil ishlash, fikrlarini erkin bayon etish qobiliyatlarida o'sishni kuzatdik. Demak, o'qituvchi muayyan guruhga biror didaktik materialni berishdan oldin asosiy mazmunni saqlagan holatda muayyan auditoriya o'rganuvchilarining bilim egallashdagi qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda tabaqalashgan yondashishi zarurligi tavsiya etiladi.